

## O'ZBEKISTONDA MINTAQALARIDA EKOLOGIK TURIZM RIVOJLANISHI ISTIQBOLLARI

**Teshabayeva Odina Nasriddinovna**

*katta o'qituvchi, i.f.f.d, PhD, odina\_0505@mail.ru,*

**Umrov Ulug'bek Utkirbek o'g'li**

*Iqtisodiyot fakulteti mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish  
yo'nalishi talabasi, FarDU*

**Annotatsiya:** Mazkur matnda O'zbekistonning ekologik turizm sohasi tahlil qilinib, uning mintaqaviy rivojlanish holati yoritilgan. Toshkent viloyati rekreatsion resurslar, infratuzilma va poytaxtga yaqinligi sababli ekoturizmدا yetakchilik qilayotgani, Qoraqalpog'iston esa Orolbo'yi inqirozi natijasida shakllangan landshaftlari va madaniy merosi bilan turistlarni jalb etayotgani ta'kidlangan. Farg'ona, Samarqand va Buxoro viloyatlarida ham ekoturizm sezilarli darajada rivojlangan. Shu bilan birga, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo kabi hududlarda infratuzilma va xizmatlar sifati pastligi sababli turizm oqimi cheklangan. Matnda ekoturizm orqali iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlarga erishish zarurligi, shuningdek, mintaqaviy tengsizliklarni bartaraf etishda har bir hudud uchun mos strategiyalar ishlab chiqish va ularni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlash lozimligi qayd etiladi. Ekoturizmning rivojlanishi ko'plab omillar, jumladan, makroiqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy va ekologik sharoitlarga bog'liq ekani ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** ekologik turizm, agroekoturizm, raqobatbardoshlik, madaniy ekoturizm, tabiiy resurslar, xizmatlar sifati, qo'riqxonalar, turizm infratuzilmasi

### Kirish

So'nggi yillarda ekologik turizm dunyo bo'ylab barqaror rivojlanish strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Atrof-muhitga ehtiyotkor munosabat, tabiat bilan uyg'un dam olish imkoniyati, ekologik ongning oshishi kabi omillar bu yo'nalishga bo'lgan talabni oshirmoqda. O'zbekiston ham bu global tendensiyadan chetda qolmay, ekoturizm salohiyatini bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarmoqda. Mamlakatimiz tabiiy-iqlimiy sharoitlari, boy biologik xilma-xilligi, tarixiy-madaniy merosi va hududiy xususiyatlari bilan ekologik turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega.


Ayniqsa, Toshkent viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Farg‘ona vodiysi viloyatlarida ekoturizm faoliyati jadal rivojlanmoqda. Biroq mintaqaviy jihatdan ekoturizmning rivojlanishi notekis bo‘lib, ayrim hududlarda hali mavjud salohiyat to‘liq ishga solinmagan. Shu nuqtai nazardan, har bir viloyatning o‘ziga xos tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlariga moslashtirilgan ekoturizm strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu ishda O‘zbekistonda ekologik turizmning mintaqaviy holati, rivojlanish omillari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy tajribalar asosida tavsiyalar ishlab chiqilib, ekoturizm orqali barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta‘minlash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Turizm-turli xil faoliyat va xizmatlarning murakkab majmui. Ular hududiy va global darajadagi son-sanoqsiz o‘zaro aloqalar bilan uyg‘unlashib ketadi. Bu aloqalar boshqa ko‘plab iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni qamrab oladi. Shunga yarasha, turbiznesdagi turli sektorlar va amalda barcha darajalarda ko‘plab ijrochi shaxslar qatnashadi. Shunday qilib, turizm sohasidagi xalqaro loyihalarni amalga oshirishda muayyan natijalarga erishish uchun turizm deb ataluvchi global tizimning o‘ziga xos murakkabliklari va xususiyatlarini chuqur tushinib olish zarur bo‘ladi.

Toshkent viloyati – ekologik turizm bo‘yicha yetakchi mintaq bo‘lib, 120 ming ekoturistni jalb etgan. Bu natija hududdagi rekreatsion resurslar (Chorvoq, Ugam-Chatqol milliy bog‘i va boshqalar), infratuzilmaning yaxshi rivojlangani hamda poytaxtga yaqinligi bilan izohlanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 110 ming ekoturist bilan ikkinchi o‘rinda turadi. Orolbo‘yi ekologik inqirozi natijasida shakllangan o‘ziga xos landshaftlar va Mo‘ynoq, Nukus kabi tarixiy-madaniy yo‘nalishlar bu mintaqani qiziqarli turizm manziliga aylantirmoqda. Farg‘ona viloyati – 100 ming sayyoh bilan kuchli uchlikni yakunlaydi. Tog‘li hududlar, agroekoturizm va an‘anaviy hunarmandchilik bilan boy resurslar bu yerda turizmni jadallashtirmoqda. Samarqand (90 ming) va Buxoro (70 ming) viloyatlarida esa ekologik turizm tarixiy-madaniy meros bilan bog‘liq holda rivojlanmoqda.

O'zbekiston mintaqalarida ekologik turizmni rivojlanishining ekoturistlar soni bo'yicha ko'rsatkichi



1 – Diagramma. O'zbekiston mintaqalarida ekologik turizmni rivojlanishining turistlar soni bo'yicha ko'rsatkichi .

Bu viloyatlar ko'proq madaniy ekoturizm shaklini taklif qiladi. Qashqadaryo (80 ming) va Surxondaryo (75 ming) viloyatlari tog'li landshaftlarga ega bo'lishiga qaramay, xizmatlar sifati va infratuzilmaning nisbatan cheklanganligi turizm oqimini cheklab turibdi. Xorazm viloyati – eng past ko'rsatkich (50 ming) bilan ro'yxatning oxirgi qismida. Bu mintaqada ekologik turizm salohiyati bo'lsa-da, u hali to'liq ochilmagan.

O'zbekistonda ekologik turizm mintaqaviy jihatdan notekis rivojlangan. Toshkent, Qoraqalpog'iston va Farg'ona viloyatlarida ekoturistlar soni yuqori bo'lib, bu ularning tabiiy, iqlimiy va infratuzilmaviy afzalliklariga asoslangan. Xorazm va ayrim janubiy mintaqalarda esa bu yo'nalishda hali salohiyat to'liq ishga solinmagan. Shu sababli, har bir hududga xos ekoturistik strategiyalarni ishlab chiqish va ularni davlat siyosatida qo'llab-quvvatlash orqali mintaqaviy tengsizlikni bartaraf etish muhim hisoblanadi.

Turizm yordamida muayyan foyda, eng avvalo, iqtisodiy foyda ko'rishga qaratilgan strategiya ekologik va ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun bozor

mexanizmlaridan foydalanishni ko'zda tutadi. Ana shu jihatdan ekoturizmning asosiy mohiyati, ya'ni birinchi navbatda xususiy firmalardan foydalanish ko'zda tutiladi. Uning asosiy maqsadi va ayni paytda faoliyat yuritish shartlari raqobatbardoshlikni va iqtisodiy manfaatdorlikni ta'minlashdan iborat. Demak, turistik biznes bilan shug'ullanishni istaydigan davlat organlari,

qo'riqxonalar hududlari ma'muriyati, ilmiy jamiyatlar va agrar hududlardagi loyiha ishtirokchilari bundan xabardor bo'lishlari shart.

2024-yilda O'zbekiston mintaqalarida ekologik turizmga bo'lgan qiziqish ortdi. Eng ko'p ekologik turistlar Toshkent viloyatiga ( $\approx 150$  ming) tashrif buyurdi. Surxondaryo ( $\approx 120$  ming) va Qashqadaryo ( $\approx 110$  ming) viloyatlarida ham yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Samarqand va Buxoro viloyatlarida bu ko'rsatkich 60–80 ming atrofida bo'lsa, Farg'ona vodiysi viloyatlarida 40–50 mingga teng. Xorazm va Navoiy viloyatlarida esa ekologik sayyohlar soni 35–45 ming orasida bo'ldi (1 – diagramma).

Xalqaro loyihalarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, xo'jalik faoliyatlari avvalo tabiiy boyliklardan foydalanishni me'yorga solishdan iborat bo'lgan qo'riqxonalar hududlari ma'muriyati va tabiatni qo'riqlash bo'yicha mutaxassislar bunday yondoshuvga ya'ni tijoratlashuvga ko'nikib qolmasliklari kerak. Daromad olish va shu yo'l bilan aholi turmush darajasini yaxshilashga urinish agrar hududlarni rivojlantirish loyihalarida iqtisodiy foyda nuqtai nazaridagina yondoshish hollari ko'proq uchramoqda. Loyihalarda asosiy e'tibor tirikchilik vositalari bilan ta'minlashga shuningdek, mahalliy bozorlarga xizmat ko'rsatishga qaratiladi. Agar shu nuqtai nazardan yondoshilsa faqat ekoturizm butunlay boshqa istiqbolni ko'zda tutadi. Ana shu faoliyat bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchilik agrar hududlarida hech qanday xususiy barqaror modefo mavjud emas. Shu bilan birga ularning hali shakllanish bosqichida ekanliklarini ham hisobga olish lozim. Bunda mamlakatning o'ziga xos tomonlarini iqlimi, tabiati, resurslari, milliy mentaliteti, moddiy bazasi, qonunlarini ham ko'zda tutish zarur. Turizmga, uning tashkiliy shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar iqtisodiy tizim sifatida qarash lozim.

Turizm sohasini rivojlantirish ko'plab omillarga bog'liq. Masalan, makroiqtisodiy muhit (soliqlar, rag'batlar, kreditlash, investisiyalar, moliyalash); siyosiy muhit (qonunlar va me'yoriy hujjatlar, nazorat organlari va tekshiruvlar, hududlar va tarmoqlarni rejalashtirish, turli shaxslar va hududlarning manfaatlari); ijtimoiy-madaniy muhit (mamlakat va hududda qabul qilingan an'analar, turmush tarzi, madaniyat, din, dunyoqarash, mentalitet, tarix, san'at); texnologik muhit (texnologiyalar, texnika, jihozlar, transport, joylashtirish, energetika, kommunikasiya); ekologik muhit (insonning biologik muhitga ta'sirini, suv va er resurslarining muhofazasiga, atmosferaning ifloslanishiga



ta'sirini hisobga olish). Ekologik omil boshqa omillar bilan bir qatorda turizm sohasining muhim omillari jumlasiga kiradi.

Ekoturizmni rivojlantirishda mahalliy xalq yoki biron bir muayyan manfaatdor guruhning o'zaro hamkorligi maqsadga muvofiq (optimal) nisbatda bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, eng avvalo, iqtisodiy va ijtimoiy ishtirokni yoki hamkorlikni farqlab olish kerak.

Siyosiy ishtirok yoki hamkorlik deganda turizmni rivojlantirish sohasida, ekologik turizm bo'yicha qo'riqxonalar hududlariga doir xalqaro (qo'shma) qarorlar qabul qilishda ishtirok etish tushuniladi. Shu maqsadda qo'riqxonalar hududlarining mahalliy maslahat kengashlari, ekoturizmni rivojlantirish hay'atlarini tuzish va ularning faoliyatini jonlantirish lozim.


Turizmning iqtisodiy tizimi — bu turizm sohasida ishtirok etuvchi barcha iqtisodiy subyektlar (mehmonxonalar, transport, ovqatlanish xizmatlari, turizm agentliklari, hokazolar) va ularning o'zaro iqtisodiy munosabatlarini ifodalovchi tizimdir (1-Chizma).


Asosiy tarkibiy qismlar:

1. Turistik mahsulot – sayyohga taklif etiladigan xizmatlar va tajribalar majmuasi.
2. Turizm bozor subyektlari – xizmat ko'rsatuvchilar (xostellar, gidlar), sayyohlar, tur operatorlar va davlat organlari.

1-Chizma

Turizmning iqtisodiy tizimi





3. Daromad manbalari – sayyohlar sarflagan pul, soliqlar, investitsiyalar, eksport valyutasi.

4. Xarajatlar tizimi – infrastruktura, marketingga, kadrlar tayyorlashga, atrof-muhitni muhofazaga yo‘naltirilgan xarajatlar.

5. Multiplikator ta‘sir – turizm boshqa tarmoqlarga (qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, transport) ham ijobiy iqtisodiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy ishtirok deganda ekoturizmdan iqtisodiy samara olishda qatnashish tushuniladi. Bu mahalliy aholi turistik biznesda mustaqil qatnashishi shart degani emas. Iqtisodiy ishtirok boshqacha tarzda amalga oshirilishi ham mumkin.

Masalan, tabiat ne'matlaridan foydalanish yoki kommunal obyektlardan bahramand bo'lish evaziga kompensatsiya sifatida qo'riqxonalar hududi ma'muriyati hisobiga ekoturizm orqali tushgan daromadning ma'lum bir qismini yo'naltirib borish, xorijiy turistik kompaniyalarga foydalanish huquqini berish yoki ijaraga taqdim etish, oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari, hunarmandchilik buyumlari bilan ta'minlash, shuningdek, mahalliy tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish, professional turistik kompaniyalar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar tashkil etish kabi yo'nalishlar ko'zda tutiladi. Ekoturizm nafaqat daromad manbai va bandlikni yaxshilash vositasi bo'lib, balki mahalliy aholining turmush darajasini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, tabiatni muhofaza qilish maqsadlarini ham unutmaslik lozim.


Ekoturizmga ta'sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat: ekologik toza yuvish vositalaridan foydalanish, suv va energiya resurslarini tejash, ichki tartib-qoidalarini mahalliy ijtimoiy tuzilmalarga moslashtirish, ekologik xavfsiz qurilish materiallaridan foydalanish, mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan xizmat ko'rsatish, chiqindilarni kamaytirishga doir choralarni ko'rish, mavsumiy oziq-ovqat mahsulotlarini konservatsiyalash va qayta ishlash, biologik usullar bilan yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish.

Shuningdek, ekologik moslashtirilgan xizmatlar ko'rsatish, noyob o'simlik va hayvonot dunyosini namoyish qilish, tabiatning estetik va ilmiy jihatdan qiziqarli manzaralarini taklif etish, mehmonlar ishtirokida tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tanlov va tadbirlarni o'tkazish ham muhimdir. Bundan tashqari, mehmonxona, kemping va sport inshootlarini loyihalashda ekologik omillarni inobatga olish, velosiped va ot-ulov ijarasini tashkil etish, golf maydonchalari va boshqa sport obyektlarini barpo etishda landshaftni asrash, qirg'oq zonalarini himoya qilish, arxitekturani mahalliy yashash muhitiga moslashtirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari, chekka hududlarda avtobekatlarni qurish, shahardan tashqaridagi jamoat transporti yo'llarini barpo etish va ta'mirlash jarayonlarida ekologik omillarga alohida e'tibor qaratish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). O‘zbekistonning yangi turizm strategiyasi: Raqobatbardosh turizmni shakllantirish yo‘nalishlari. Toshkent: Prezident Farmonlari to‘plami
2. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (2024). Raqamli turizm boshqaruvi: Yangi texnologiyalar va yondashuvlar. Toshkent
3. Uzbekistan Tourism Development Strategy (2024–2025). Comprehensive Plans for Tourism Development. Toshkent: Uzbekistan Tourism Committee
4. Тешабаева, О. Н. (2025). Туризм соҳасида тадбиркорликни ривожлантиришнинг иқтисодий механизми: глобал тенденциялар ва миллий тажриба. Modern educational system and innovative teaching solutions, 1(8), 199-204.
5. Nasridinovna, T. O. (2025). Global impact and recovery of the tourism business and increasing the competitiveness of the tourism industry in Uzbekistan. modern problems in education and their scientific solutions, 1(6), 125-131.
6. Nasridinovna, T. O. (2024). Methods of Assessing the Competitiveness of Entrepreneurial Activity in Tourism Enterprises. Gospodarka i Innowacje., 46, 590-594.
7. Nasridinovna, T., & Mirzabahrom, M. (2024). Innovative Reforms and Economic Strategies in the Development of Domestic Tourism in Uzbekistan. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences, 3(4), 10-17.
8. Nasriddinovna, T. O. (2024). Prospects for the growth of tourism in Uzbekistan and the use of organizational and economic methods in the management of tourist complexes. International journal of artificial intelligence, 4(07), 98-103.
9. Nasridinovna, T. O. (2023). Factors affecting the management of competitiveness in tourism enterprises. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(10), 159-163.
10. Насридиновна, Т. О. (2024). Пути формирования методов продажи туристических услуг при развитии туризма в Узбекистане. International journal of scientific researchers (IJSR) indexing, 4(1), 139-145.
11. Nasridinova, T. O. (2024). Developing employee management strategies in hotel management. American journal of business management, 2(5), 1-7.





12. Nasridinova, T. O. (2025, April). The importance of effective marketing strategies in the development of tourism services. In conference of modern science & pedagogy (Vol. 1, No. 1, pp. 119-124).

13. Saparboyeva, Z. S. (2023). O'zbekistonda ekologik turizmini rivojlantirish. Journal of Innovations in Scientific and Educational Research, 6(4), 258–262. КиберЛенинка